

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI O`QISH VA SAVODGA TAYYORLASH DOLZABR MASALADIR

Matkarimova Nodira Egamberganovna
Xiva pedagogika kollejining "Maktabgacha
ta`lim metodikasi" kafedراسi o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola "Maktabgacha yoshdagi bolalarni o`qish va savodga tayyorlash dolzabr masaladir" mavzusida yozilgan bo`lib, bolaning maktab ta`limiga tayyorgarligi va rivojlanish darajasini aniqlash metodlarining dolzab masalalari yoritilgan.

Kalit so`zlar: maktabgacha ta`lim, savodga tayyorlash, sog`lom avlod, ta`lim-tarbiya.

Inson, uning har tomonlama uyg`un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro`yobga chikarishning sharoitlarini va ta`sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o`zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O`zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "Ta`lim to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro`yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta`lim va kasb-hunar dasturini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o`zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshka tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o`z javobgarligini his etadigan fuqarolar tarbiyalashni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta`lim bola sog`lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta`minlaydi, unda o`qishga intilish hissini uyg`otadi, uni muntazam ta`lim olishga tayyorladi. Maktabgacha ta`lim maqsadi va vazifalarini ro`yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Milliy mafkuramiz va qadriyatlarimiz xalqimizning maqsad muddaolarini ifodalaydi. Farzandlar oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma`naviy qiyofasini ko`radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoada anglaydi. Ular ongiga dastlabki ma`naviy-axloqiy bilimlarni singdirishda oilaning, ayniqsa, ta`lim-tarbiya muassasalarining o`rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ta`lim-tarbiya muassasalari, oila va mahalla qo`mitalari ijtimoiy institutlarning asosiy vazifasi milliy istiqloq g`oyasini

barcha yoshlarimiz ma'naviy boyligiga aylanishiga, ularning dunyoqarashiga singdirishda ko'maklashish, mazmun-mohiyatini har tomonlama tushuntirishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida yoki oilada maktab ta'limiga tayyorlash, uni murakkab bo'lmagan bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar egallagan xulq-atvor shakllari, kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabat shakllari, axloqiy xis - tuyg'u va tasavvurlar maktabning boshlang'ich sinflarida bolalarga yangi axloqiy xulq-atvor shakllarini ularning ongini, his-tuyg'ularini tarbiyalash uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Maktab bolalarda axloqiy tasavvurlar va xulq - atvorda birlik bo'lishini tarbiyalash, o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarlikni seza bilish, jamoachilik hislatlari, sifat jihatdan yangi bo'lgan xulq, atvor shakllarini tarkib toptirish uchun shart-sharoit yaratadi. Maktabda vatanparvarlik, baynalmilallik, o'z vatani oldidagi burchini chuqur anglash kabi his-tuyg'ular shakllanadi. Sunday yuksak hislar bolalarning MTTda ota-onalariga, oilasiga muhabbat, kattalarga hurmat, ona tabiatga mehr va shu kabi axloqiy hislari asosida shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar egallashlari lozim bo'lgan bilim va tushunchalar mazmunini tevarak-atrofdagi hayot to'g'risidagi tasavvurlar va ayrim oddiy tushunchalar tashkil etadi. MTTi bilan maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik katta maktabgacha yoshdagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Shunday ish tutilganda bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ancha yengillik bilan o'tadi. Bolalar maktab sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa o'z navbatida maktabda o'qishning birinchi kundan boshlab ta'lim-tarbiya ishining samarasini oshiradi. Bola kishilik jamiyatining sog'lom va faol a'zosi bo'lib yetishishi uchun odamlar orasida yashashi, insoniyat hayoti va mehnati jarayonida ko'p asrlardan buyon to'plab kelinayotgan bilimlarni egallab borishi, kattalar tarbiyasida bo'lmog'i lozim. Bolaning xotirasi va kuzatuvchanligi, diqqati va tafakkuri, his-tuyg'ulari va irodasini mashq qildirish kabi faoliyatlar, odatda murabbiy va tarbiyachilar tamonidan amalga oshiriladi. Fikrlashni rivojlantirish (obrazli, mantiqiy, ijodiy, abstrakt).

a) nutqiy intellekt (og'zaki fikrlash).

O'zaro aloqa nutqini rivojlantirish:

atrofdagilar bilan muomala qila bilish, o'ziga qarata aytilgan gapni tushunish, so'zlashishga kirishish, aniq qilib gapirish, savollarga javob qaytarish (dialog, nutq);

o`zidagi so`z boyligidan (2-3 ming so`z) faol foydalana bilish, eshitganini aytib bera olish, ko`rganini gapirib berish, suratlarga qarab syujet bo`yicha hikoya qilib berish, asosiy tayanch so`zlar bo`yicha hikoya tuzish va boshqalar (monolog nutq);

nutqning sifat ko`rsatkichlari; nutqning ifodaliligi, nutq tovushining barchasini aniq va to`g`ri ifodalanishi, tilning grammatik shakllaridan to`g`ri foydalanish;

b) amaliy intellektni rivojlantirish (o`g`zaki fikrlashni emas, balki faoliyatning turli xillarida amaliy qobiliyatni rivojlantirish):

- o`yin faoliyatini rivojlantirish: o`zaro o`yinlarda faol qatnashish (syujetli rol o`ynaladigan, drammati o`yinlar, qoidali o`yinlar);

- bolalar bilan ijodiy mustaqil o`yinlarga doir maqsadlarni kelishib olishni bilish;

- rollarni taqsimlash, o`yinlarning qoidalariga bo`ysunish;

- alohida o`yinlarni tashkil qilish, o`yin uchun kerakli materiallar va zarur narsalarni tanlab olish;

- o`yinda muqobil narsalarni ishlatish;

- mehnat faoliyatini rivojlantirish;

- bolalarda "Men o`zim qilaman" degan muayyan qat`iyatlilikni shakllantirish (ayrim mehnat malakasi va qobiliyatiga ega bo`lish, o`z-o`ziga xizmat qilish malakasi, turmush va tabiatdagi tartibning buzilishini payqash, o`yinchoqlarni tuzatish, bog`lab mahkamlash, idishlarni yuvish, uyda xo`jalik ishlarida qarashish, dasturxonni tuzatish, oshxona jihozlaridan foydalana bilish, o`z ust-boshini tuzatish va boshqalar);

- boshlagan ishini oxiriga yetkazishga odatlantirish (ya`ni, mehnatning samarasi va foydasini anglab yetish);

- jamoada ishlay bilish, ishni hamkorlikda rejalashtirish, faoliyat mazmunini boyitish va boshqalar;

- tasviriy faoliyatni rivojlantirish;

- tasviriy faoliyatning texnik malakalar majmuini va barcha turdagi texnologiyasini egallash (qalam, bo`yoq, mo`yqalam, qo`l, cho`p va hokazolar bilan rasm chizish, loydan, plastilindan va qog`ozdan, tabiat, materiallaridan, matodan va hokazolardan narsalar yasash); qaychidan foydalana bilish (simmetrik va simmetrik bo`lmagan shakllarni qirqish va boshqalar);

- musiqali - xoreografik qobiliyatni rivojlantirish; musiqa eshituvchi qobiliyatni rivojlantirish (tovushlarning to`g`ri yoki noto`g`ri taralayotganini tinglab, tovush o`zgarishlarini tinglash);

- musiqaga mos harakatda o`ziga nisbatan ishonch his etish (maqomga mos ravishda, musiqaga muvofiq tarzda harakat qila bilish);

- turli maqomdagi musiqaga ma`noli harakatlar bilan javob qaytarish;

- harakat va qiliqlarni mahorat bilan o`z o`rnida ishlata bilish;

- murakkab bo`lmagan qo`shiqlarni yakka ovozda va xorda ma`noli, jarangdor ovozda ijro etish;

- turli xil bolalar milliy musiqa chalish usullarini egallash;
- ertak, qisqa sahna ijrolarida obrazga kira olish va boshqalar;

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo`ladigan – o`quv faoliyatiga tayyorlangan bo`lishi lozim. Bunda bolada ma`lum bir tegishli masalalarning shakllangan bo`lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o`quv topshirigini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o`quvchilaridan topshiriqda o`zi belgilagan o`zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki uyin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o`zlashtiradi. Agar bola zarur malaka va ko`nikmalar zahirasiga ega bo`lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo`lsa-yu o`quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo`lmasa, maktabda o`qib ketishi qiyin kechadi. Agar o`qituvchi yoki ota-ona uni o`qishga qiziqтира olmasalar, o`quv vazifalarini zo`rma-zo`raki, sifatsiz, qo`l uchida bajaradilar. Bundaylarda zarur natijalarga erishish qiyin bo`ladi. Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo`l qo`yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo`rqitish hollari ham kuzatiladi.

- **Ikkita gapni eplab gapira olmasang, maktabda qanday o`qiysan?**
- **Sanashni bilmaysan-u, maktabga qanday borasan?**
- **Maktabga borsang, o`rtoqlaring bu qilg`ingdan kulishadi!**
- **Hech narsani bilmaysan, maktabga borsang bizni uyaltirasan!**

kabi ta`na-dashnomlar, bolada maktabdan qo`rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo`lishi mumkin. Shunday qo`rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo`lgan munosabatini o`zgartirish, ularda o`ziga nisbatan ishonch uygotish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e`tibor zarur bo`ladi. Bu esa bolada oldindan maktabga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda shubhasiz, murakkab jarayondir.

Bolani birinchi sinfda o`qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan bo`ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog`liq bo`lmagan xolda, shaxsiy ahamiyatga ega bo`lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday muloqot bolaning kattalar e`tiboriga va hamdardligiga bo`lgan ehtiyoj va ehtiyojlarni kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Muloqotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e`tibor, ular murojatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan ham ularga nisbatan shunday e`tibor ko`rsatilishiga bo`lgan ishonch xosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (ko`chada, uyda, mehmonda,

ishxonada) o`zlarini qanday tutishlarini farqlay oladilar. Kattalarning bunday xulqni anglash evaziga bolalar ham kattalarga, o`qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bo`lsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa albatta bola bilan olib boriladigan ta`lim jarayonini murakkablashtiradi.

Xulosa o`rnida yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytib o`tish joizki, ta`lim tizimi va unda kechayotgan jarayonlar sog`lomashtirish, shaxsni rivojlantirish eng asosiysi tarbiyaga berilayotgan e`tibor barchamizni qiziqtirishi va nazarimizdan chetda qolmasligi darkor. Chunki, bu ishlarning barchasi bevosita sog`lom avlodni shakllantirishga qaratilgan. Darhaqiqat, yosh avlod unib o`sayotgan ekan ularga albatta biz o`z e`tiborimizni qaratmog`imiz ularning ta`lim-tarbiya ishlariga alohida yondashmog`imiz shart va bu bizning yosh avlod va xalqimiz oldidagi burchimizdir. Bolalarimizni davlatimiz kelajagini o`ylovchi, o`z vatani uchun jon kuyduruvchi vatanparvarlik ruhida tarbiyalishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. M.Rasulova, D.Abdullaeva, S.Oxunjonova, «Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi» T.,2004 yil.
2. M.Daminov, T.Adambekova. O`yin mashg`ulotlari. «O`qituvchi» T.,1993 y.
3. O`.Egamov, Z.Bobomurodov. Qog`ozlar bilan ishlash. T., 1993 y.
4. N.U.Bikbaev, X.N.Qosimova, Z.Ibragimova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. «O`qituvchi»T., 1995 y.
5. X. Axmedova va boshqa... «Bolangiz maktabga tayyormi?» T., 2000y.

Internet manbalari:

1. www.ta`lim.uz
2. www.edu.uz.
3. www.pedagogika.uz.
4. www.ziyonet.uz.